

KADASTRLARNI YURITISH BO‘YICHA QONUN HUJJATLARI

Mahmudov Diyorbek Olimboy o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Hidrotexnika qurilishi yo‘nalishi talabasi. Qarshi shahri.

O‘zbekiston Respublikasi.

E-mail: diyorbek20030602@gmail.com

Bazarbayeva Go‘zal Rustam qizi

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Yer kadastr va yerdan foydalanish yo‘nalishi talabasi. Qarshi shahri.

O‘zbekiston Respublikasi.

E-mail: bazarbayevagozal443@gmail.com

Rustamboyev Kamronbek Otabek o‘g‘li

“TIQXMMI” Milliy tadqiqot universitetining Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti. Iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi. Qarshi shahri. O‘zbekiston Respublikasi.

E-mail: otabekvich250@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada kadastrlarni yuritish bo‘yicha qabul qilingan qonun hujjatlari va me‘yoriy hujjatlar tarkibini, shuningdek bu sohani boshqaruvchi va nazorat qiluvchi davlat o‘rganlari va ularning vakolatlari doirasi haqida ma‘lumotlarga ega bo‘lasiz.

Kalit so‘zlar: kadastr, ko‘chmas mulk, yer hisobi, mulk, uy-joy kodeksi, shaharsozlik kodeksi.

LEGAL ACTS ON CADASTRE MANAGEMENT

ABSTRACT

This article, you will have information about the composition of legal documents adopted in the field of cadastres, as well as information about the administrative bodies that manage and control this area and their scope of authority.

Keywords: cadastre, real estate, land account, property, housing code, urban planning code.

Bugungi kunda kadastr sohasi jahondagi barcha mamalakatlarda rivojlanib bormoqda va u tabiiy resurslardan foydalanish, muhandislik faoliyati, ekologik, ijtimoiy hodisalarni hisobga olish tushunchalari bilan bog'liqdir. Ko'plab davlatlarda **kadastr** tushunchasini **ko'chmas mulk** tushunchasi bilan bog'lashadi, ammo bizning yurtimizda kadastr sohasini- o'z sharoiti bir xil bo'lgan hududiy birliklarni ajratishga, ularni xaritaga tushirish, sifat va miqdor tavsiflaridan foydalangan holda ta'riflashadi. Barcha davlatlarda bo'lgani singari O'zbekiston Respublikasida ham Kadastrlarni yuritish bo'yicha qonun hujjatlari ishlab chiqilgan va ularning faoliyatini nazorat qiluvchi davlat organlari mavjuddir. Shu o'rinda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, maxsus vakolatli organ hisoblanadi va ushbu organning davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi vakolatlarini keltirib o'tsak. Bular quyidagilar:

- Davlat kadastrlarining yagona davlat siyosatini amalga oshiradi, ularni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlarini belgilaydi, shuningdek moliyalashtirish va investetsiya masalalarini hal qiladi;

- Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritish tartibini belgilaydi;

- Kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish, kadastrga doir axborotni foydalanuvchiga taqdim etish tartibini belgilaydi;

- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

O'zbekiston Respublikasi Yer resurslari, geodeziya, kartografiya va davlat kadastrlari davlat qo'mitasi (Davyergeodezkaadstr qo'mitasi) davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi maxsus vakolatli organ hisoblanadi va bu qo'mita vakolatlariga quyidagilar kiradi:

- Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining davlat kadastrlarini yuritish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

- Davlat kadastrlari yagona tizimini yuritadi;

- Vazirliklar, davlat qo'mitasi va idoralarni tegishli davlat kadastrlarini yuritish uchun zarur bo'lgan kartografiya materiallari bilan belgilangan tartibda ta'minlaydi;

- Davlat kadastrlari yuritilishiga doir normativ hujjatlarni belgilangan tartibda tasdiqlaydi;

- Mutaxassislar tayyorlash va malaksini oshirish ishlarini tashkil etadi;
- Qonun hujjatlariga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi;



Endi esa davlat kadastrlarini yuritish sohasini tartibga soluvchi ayrim normativ-huquiy hujjatlarni ko‘rib chiqsak. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizmini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrda PF-6061-son farmoni hamda “O‘zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo‘mitasi huzuridagi Kadastr agentligi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020-yil 7-sentabrdagi PQ-4819-son qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaroriga ko‘ra , quyidagilar:

- Davlat yer kadastrining tarjibiy qismlari, davlat yer kadastrini yuritishning asosiy prinsiplari hamda davlat yer kadastrini yuritishda Davlat kadastrlari palatasi va uning hududiy boshqarmalarining vazifalarini nazarda tutuvchi Davlat yer kadastrini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq;

- Binolar, inshootlar davlat kadastrlari tarkibi, bosqichlari hamda binolar va inshootlar davlat kadastrini yuritishni tashkil etishni nazarda tutuvchi Bino va inshootlar davlat kadastrlarini yuritish tartibi to‘g‘risidagi nizomga muvofiq;

- Yer uchastkasi, bino va inshootlar hamda ko‘p yillik daraxtlarning kadastr ma‘lumotlarini tayyorlash, yig‘ma jildini tayyorlash hamda kadastr yig‘ma jildini shakllantirish natijasida kadastr pasportini rasmiylashtirishni nazarda tutuvchi

Ko'chmas mulk ob'ektiga kadastr yig'majildini tayyorlash tartibi to'g'risidagi nizomga muvofiq tasdiqlanadi.

Har bitta soha bo'yicha qonun hujjati ishlab chiqilar ekan uning asosini tashkil etuvchi, ya'ni poydevor hujjatlari bo'ladi. Shu o'rinda Respublikamizda davlat kadstrlarini yuritishning normativ –huquqiy hujjatlari mavjud bo'lib, bularni keltirib o'tsak.

O'zbekiston Respublikasi Kodekslari:

1. O'zbekiston Raspublikasi Yer kodeksi.
2. O'zbekiston Respublikasi shaharsozlik kodeksi.
3. O'zbekiston Respublikasi Uy-joy kodeksi.
4. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi.

O'zbekiston Respublikasi Qonunlari:

1. O'zbekiston Respublikasining “Davlat kadastr to'g'risida”gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining “Davlat yer kadastr to'g'risida”gi Qonuni.
3. O'zbekiston Respublikasining “Yerosti boyliklari to'g'risida”gi Qonuni.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tishimiz lozim, Kadastr ob'ektlariga bo'lgan huquqlarni davlat ro'yxatidan o'tkazish va belgilangan me'yoriy hujjatlarga bo'ysunish, kadastr ob'ektlarining barcha mulkdorlari va kadastr ob'ektlariga doir boshqa huquqlarning egalari uchun majburiydir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. “Davlat kadastrlari asoslari” darslik. I.Ixlosov, D.M.Rizayeva.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining “Davlat kadastrlari yagona tizmini yaratish va yuritish tartibi to'g'risida”gi nizom.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yer hisobi va davlat kadastrlarini yuritish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 2020-yil 7-sentabardagi PF-6061-son Farmoni.